

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 330.322:005.8

INVESTITSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISH JARAYONINING BOSQICHLARI VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI BAHOLASH MEKANIZMLARI**ЭТАПЫ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫМ ПРОЕКТОМ И МЕХАНИЗМЫ ОЦЕНКИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ****STAGES OF THE INVESTMENT PROJECT MANAGEMENT PROCESS AND INVESTMENT ATTRACTIVENESS ASSESSMENT MECHANISMS****Shakhnozakhon Nishonova**

Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy o'zgarishlarining chuqurlashuvi sharoitida investitsion loyihalarning mohiyati va ularni amalga oshirish omillari tahlil qilinib, kapital qo'yilmalarining yuqori samaradorlikka ega shakllarini tanlash bo'yicha bosqichli yondashuv ishlab chiqildi.

Аннотация

В статье проанализированы сущность инвестиционных проектов и факторы их реализаци в условиях углубления структурных преобразований экономики Узбекистана, а также разработан поэтапный подход к выбору наиболее эффективных форм капитальных вложений.

Abstract

The article analyzes the essence of investment projects and the factors influencing their implementation in the context of deepening structural transformations of Uzbekistan's economy. A step-by-step approach to selecting the most efficient forms of capital investment has also been developed.

Kalit so'zlar: investitsion loyihalarni boshqarish, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik omillari, kapital qo'yilmalarining samaradorligi, investitsiya risklarini boshqarish, investitsion faoliyat bosqichlari, iqtisodiy rivojlanish sharoitlari.

Ключевые слова: управление инвестиционными проектами, инвестиционная среда, факторы инвестиционной привлекательности, эффективность капитальных вложений, управление инвестиционными рисками, этапы инвестиционной деятельности, условия экономического развития.

Key words: investment project management, investment environment, factors of investment attractiveness, efficiency of capital investment, investment risk management, stages of investment activity, economic development conditions.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida asosiy strategik vazifalardan biri iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, aholi farovonligini oshirish va barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan institutsional hamda iqtisodiy sharoitlarni shakllantirishdan iboratdir. Mazkur vazifani samarali amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri — real sektor iqtisodiyotiga investitsiyalarni faol jalb etish va investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta'minlashdir [1].

Investitsiyalar xo'jalik faoliyatining eng chuqur tarkibiy asoslarini qamrab oladi hamda mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanish dinamikasini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Kapital qo'yilmalarining hajmi va samaradorligi iqtisodiy o'sish sur'atlariga, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga, texnologik yangilanish jarayonlariga va butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mavjud iqtisodiy sharoitda investitsiyalar mamlakatning zamonaviy texnik va texnologik yutuqlarni joriy etishi, xo'jalik faoliyatining mikro va makro darajadagi sifat ko'rsatkichlarini oshirishi uchun eng muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Investitsiya jarayonini faollashtirish esa keyingi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng samarali mexanizmlaridan birini tashkil etadi [2].

IQTISODIYOT

Investitsiyalarni boshqarish — bu investitsiya faoliyatining barcha yo'nalishlari va jihatlarini qamrab oluvchi kompleks boshqaruv jarayonidir. Investitsiyalarni boshqarish quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Davlat darajasida investitsiya faoliyatini boshqarish. Bu yo'nalish investitsiya jarayonlarini tartibga solish, nazorat qilish va rag'batlantirish kabi funksiyalarni o'z ichiga olib, ular normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va reglamentlashtiruvchi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Alohida investitsiya loyihalarini boshqarish. Bu bosqich investitsiya loyihasining barcha hayotiy sikl bosqichlarida — rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, monitoring va nazoratni amalga oshirishni talab etadi. Bunda zamonaviy loyihani boshqarish metodlari, texnologiyalari va texnikalaridan foydalaniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt (korxona) darajasida investitsiya faoliyatini boshqarish. Bu yo'nalish korxona tomonidan investitsiya obyektlarini tanlash, investitsiya jarayonining borishini nazorat qilish, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish va investitsiya siyosatini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maqolaning asosiy maqsadi investitsion loyihalarni boshqarishning zamonaviy nazariy va amaliy yondashuvlarini tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishi sharoitida kapital qo'yilmalarining yuqori samaradorligini ta'minlaydigan optimallashtirilgan boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOTNING ASOSIY QISMI

Investitsiya muhitining eng muhim omillaridan biri - bu xorijiy investorlarning mamlakat iqtisodi yotiga kirishi va faoliyat yuritishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza hisoblanadi. Ushbu huquqiy asos investorlar uchun kafolatlar, faoliyat yuritish shartlari va investitsiya jarayonining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida investitsion tartibga solishning asosini umumiy qonunchilik hujjatlar - mamlakat Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Yer kodeksi hamda investitsiyalar sohasiga oid maxsus qonunlar tashkil etadi. Ularga "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi Qonun, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun kabi hujjatlar kiradi.

Shuningdek, investitsiyalarni huquqiy himoya qilish xalqaro bitimlar orqali ham mustahkamlangan bo'lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- xorijiy investitsiyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha ikki tomonlama bitimlar;
- daromad va mol-mulkni ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi kelishuvlar;
- yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimlar. [3, 4].

1998-yil 30 aprelda qabul qilingan "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi Qonun (№ 609-I) hamda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun (№ ZRU-598, 2019 yil) O'zbekiston iqtisodiyotining qonunchilikda taqiqlanmagan barcha sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ruxsat beradi. Qonunda belgilangan cheklovlar bundan mustasno.

Mazkur qonunlarda xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga kirib kelishining quyidagi shakllari belgilangan:

- xorijiy investor ishtirokidagi qo'shma korxonalar tashkil etish;
- xorijiy investor to'liq egalik qiladigan korxonalarni barpo etish;
- xorijiy yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallarini ochish.

Qonun xorijiy investorlar huquqlarining barqarorligini, ularning mulkini himoya qilishni, daromadlarni erkin repatriatsiya qilishni hamda investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun teng huquqli (milliy) rejimni kafolatlaydi. Shuningdek, investorlarga nisbatan noqonuniy milliyashtirish yoki rekvizitsiya holatlari qat'iy cheklanadi, bunday holatlar yuzaga kelgan taqdirda esa to'liq va tezkor kompensatsiya berilishi qonunchilikda mustahkamlangan.

Korxona darajasida investitsiya faoliyatini boshqarishning asosiy maqsadi - kapital qo'yilmalarining eng samarali shakllarini amalda ro'yobga chiqarishni ta'minlashdan iborat. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini inobatga olgan holda korxonalar uchun kapitalni joylashtirishning samarali modeli taklif etiladi. Ushbu model bir nechta bosqichlardan iborat.

Korxona darajasida investitsiyalarni boshqarishning birinchi bosqichi - bu mamlakat investitsiya muhitini kompleks tahlil qilishdir. Mazkur tahlil quyidagi asosiy ko'rsatkich va prognozlarini o'rganishni o'z ichiga oladi:

– Yalpi ichki mahsulot, milliy daromad va sanoat ishlab chiqarishi hajmlarining dinamikasi.

- Milliy daromadning taqsimlanish dinamikasi (jamg'arma va iste'mol o'rtasidagi nisbat).
- Xususiylashtirish jarayonlarining rivojlanish darajasi va sur'atlari.

Investitsiya faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi, shuningdek alohida investitsiya bozorlarining - pul bozori va fond bozorining rivojlanish xususiyatlari.

Ikkinchi bosqich - korxonaning iqtisodiy va moliyaviy rivojlanish strategiyalaridan kelib chiqib, investitsiya faoliyatining aniq yo'nalishlarini tanlashdir. Ushbu bosqichda korxona o'z investitsiya faoliyatining tarmoq bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini, shuningdek, faoliyatning turli bosqichlarida qo'llaniladigan investitsiya shakllarini belgilaydi.

Tarmoq bo'yicha investitsiya yo'nalishlarini aniqlash iqtisodiyotning alohida tarmoqlari investitsion jozibadorligini baholashni talab qiladi. Bu o'z navbatida ushbu tarmoqlarning bozordagi kon'yunkturasini, rivojlanish dinamikasini hamda mahsulotlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj istiqbollari chuqur o'rganishni nazarda tutadi.

Tarmoqlar bo'yicha investitsion jozibadorlikni baholash bilan bir qatorda, korxona alohida mintaqalarning investitsion jozibadorligini ham tahlil qiladi. Chunki bir xil tarmoqdagi korxonalar turli hududlarda joylashgan bo'lsa, ularning investitsion imkoniyatlari va jozibadorligi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Shu sababli mintaqaning investitsiya muhiti, infratuzilmasi, resurslari va bozor salohiyati alohida o'rganiladi.

Uchinchi bosqich - aniq investitsiya obyektlarini tanlashdan iborat. Bu bosqichda investitsiya bozorida joriy takliflar tahlil qilinadi va korxonaning investitsiya strategiyasiga mos keladigan real investitsiya loyihalari hamda moliyaviy instrumentlar saralanadi. Tanlangan investitsiya obyektlari korxonaning umumiy iqtisodiy strategiyasiga mos bo'lishi va kutilayotgan samaradorlikni ta'minlashi lozim.

Investitsiyalarni boshqarish jarayonida korxona uchun investitsiyalarning yuqori samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli amalga oshirilishi rejalashtirilgan barcha investitsiya obyektlari ularning iqtisodiy samaradorligi nuqtayi nazaridan chuqur tahlildan o'tkaziladi. Ushbu tahlil natijalariga ko'ra, investitsiya obyektlari samaradorlik va rentabellik mezonlari bo'yicha reytinglanadi hamda eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan loyihalar amalga oshirish uchun tanlab olinadi.

To'rtinchi bosqich — investitsiyalarning likvidligini ta'minlashdir. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida korxona investitsiya muhiti o'zgarishi natijasida ayrim investitsiya obyektlari bo'yicha kutilayotgan daromadlilikning sezilarli darajada pasayishi mumkinligini hisobga olishi zarur. Bunday holatlarda korxona o'z vaqtida investitsiya dasturidan chiqish yoki kapitalni qayta yo'naltirish (reinvestitsiya) bo'yicha qarorlar qabul qilishi lozim. Shuning uchun har bir investitsiya obyektining boshlang'ich bosqichdayoq likvidlik darajasi baholanishi, eng yuqori potentsial likvidlikka ega obyektlarga ustuvorlik berilishi talab etiladi.

Beshinchi bosqich — investitsiya resurslariga bo'lgan zarur miqdorni aniqlash va ularning shakllanish manbalarini belgilashdan iborat. Ushbu bosqichda korxonaning rejalashtirilgan investitsiya yo'nalishlari bo'yicha umumiy investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyoji prognoz qilinadi. Ehtiyoj miqdoridan kelib chiqib, investitsiya resurslarini shakllantirish manbalari aniqlanadi. Agar korxonaning ichki resurslari yetarli bo'lmasa, qo'shimcha moliyalashtirish uchun qarz mablag'larini jalb etish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Oltinchi bosqich — investitsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan investitsion risklarni boshqarishdir. Ushbu bosqichda korxona investitsiya jarayonini amalga oshirish davomida barcha investitsiya obyektlari bo'yicha duch kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlashi, ularni baholashi va aniqlangan risklarni minimallashtirishga qaratilgan choralar majmuasini ishlab chiqishi lozim.

Investitsion risklar — bu investitsiya faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lmagan, tashqi omillar ta'siri ostida shakllanadigan noaniqliklar bo'lib, ular ko'pincha respublika darajasidagi makroiqtisodiy, ijtimoiy yoki ekologik omillar bilan belgilanadi. Bunday risklarga quyidagilar kiradi: mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik darajasi; tabiiy muhitning holati va ekologik omillar; mehnat munosabatlaridagi ziddiyatlar darajasi; jinoyatchilikning umumiy darajasi; ishsizlik ko'rsatkichlari; aholining bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlariga bo'lgan munosabati.

XULOSA VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Xalqaro reyting agentliklari baholashlariga ko'ra, O'zbekistonning kredit reytingi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib bormoqda. Jumladan, Fitch Ratings, Standard

IQTISODIYOT

& Poor's va Moody's agentliklari mamlakatning iqtisodiy islohotlari, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash choralari va investitsiya muhiti yaxshilanishini ijobiy baholamoqda. Respublikada xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha eng rivojlangan va raqobatbardosh mexanizmlar energetika, sanoat va infratuzilma tarmoqlarida shakllangan.

Investitsiya muhiti ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. investitsion jozibadorlik,
2. investitsion faollik.

Investitsion jozibadorlik — bu asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb qilish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv omillar, imkoniyatlar va cheklovlar majmui. Ushbu ko'rsatkich ikki omil guruhidan shakllanadi:

- investitsion potensial, ya'ni iqtisodiyotning mavjud resurslari, ishlab chiqarish salohiyati, infratuzilma darajasi va bozor imkoniyatlari;
- investitsion risklar, ya'ni makroiqtisodiy,
 - ijtimoiy-siyosiy va ekologik noaniqliklar.

Investitsion faollik esa asosiy kapitalga investitsiyalar oqimining intensivligini ifodalaydi va integral (kompleks) ko'rsatkich yordamida o'lchanadi. Investitsion faollik holatiga qarab faktik hamda istiqboldagi (prognoz) ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Mahsus baholash tizimida investitsiya obyektining jozibadorlik ko'rsatkichi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$S_i = H_i / F_i$$

bu yerda:

S_i - i-obyektning investitsion jozibadorligi;

F_i - obyektning resurs potentsiali;

H_i - investorning ushbu obyektning moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoji (yoki "iste'mol buyurtmasi").

Mazkur baholash tizimida asosiy parametr sifatida iste'mol buyurtmasi (H) muhim rol o'ynaydi. Iste'mol buyurtmasi - bu kelajakdagi potensial investorning investitsiya loyihasiga o'z erkin mablag'larini kiritishga bo'lgan gipotezik tayyorligi sifatida talqin etiladi. Ushbu tayyorlik darajasi umumiy ko'rsatkich bo'yicha ham, alohida resurs parametrlarining qiymati bo'yicha ham shakllanishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, resurslarning to'liq o'zaro almashinuvchanligi prinsipining qo'llanishini anglatadi.

Shunday qilib, iste'mol buyurtmasi (H) qiymati tarmoq bozoridagi kon'yunkturaga bevosita bog'liq bo'ladi. Agar muayyan tarmoqda talab taklifdan yuqori bo'lsa ($T > T_q$), potensial investorlarning turli ishtirokchilar resurslarini moliyalashtirishga bo'lgan tayyorligi ortadi. Bunday sharoitda iste'mol buyurtmasi (H) barcha ishtirokchilar resurslari bo'yicha shakllanadi va ularning individual ustunliklari yoki kamchiliklaridan qat'i nazar, birgalikda baholanadi.

Bunday holatda iste'mol buyurtmasi (H) quyidagiga teng bo'ladi:

$$H = \sum_{i=1}^n F_i$$

Bu yerda i — musobaqada ishtirok etayotgan subyektlarning umumiy soni bo'lib, u 1 dan n gacha bo'lgan qiymatni qamrab oladi.

Tarmoq bozoridagi tovar muvozanatining xaridorlar foydasiga siljishi sharoitida vaziyat mutlaqo boshqacha shakllanadi. Taklifning talabdan oshib ketishi yoki ularning uzoq muddat davomida bir xil darajada saqlanishi potensial investorni raqobatdosh resurslarning afzalliklarini tanqidiy baholashga undaydi. Eng sodda va radikal yondashuv shundan iboratki, resurs sifatiga qo'yiladigan mezon tarmoqning o'rtacha darajasigacha ko'tariladi.

Bunday sharoitda iste'mol buyurtmasi (H) musobaqada ishtirok etayotgan barcha subyektlarning resurslari yig'indisiga teng bo'ladi, biroq faqat quyidagi shart bajarilgan taqdirda: har bir ishtirokchining resursi F_i tarmoqning o'rtacha resurs darajasidan ($\bar{F}$) yuqori bo'lishi kerak, ya'ni:

$$F_i > \bar{F}$$

Agar gipotezik investor o'rnini mulk uchun da'vogarlik qilayotgan raqobatchi egallasa, unda investitsiya obyektlarining jozibadorligi haqidagi qarorlar shu raqobatchining resurslarni baholash mezonlari va tasavvurlari asosida shakllanadi. Bu esa o'z navbatida mos cheklovlar va ruxsat darajalarini belgilashni talab qiladi.

Investitsion potensial esa asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy-geografik xususiyatlar majmuasini anglatadi. Bunday xususiyatlarga, masalan, sanoat ishlab chiqarishi hajmi, kichik biznesning rivojlanish darajasi, zarar bilan ishlayotgan korxonalar ulushi va mintaqada avtomobil yo'llari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi kiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sharipov, S. *Investitsiyalar va ularni boshqarish asoslari*. -Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020.
2. Xamidov, A. *Loyiha boshqaruvi: nazariya va amaliyot*. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, № ZRU-598, 2019 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2022 yil.
5. Podshivalenko, G.P. *Investitsiyalar: darslik*. -Moskva: "KNORUS", 2019.
6. William F. Sharpe, Gordon J. Alexander, Jeffrey V. Bailey. *Investments*. New York: McGraw-Hill, 2010.
7. UNIDO. *Manual for the Preparation of Industrial Feasibility Studies*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2019.
8. OECD. *Investment Policy Reviews: Uzbekistan 2020*. Paris: OECD Publishing, 2020.
9. Fitch Ratings. *Uzbekistan – Sovereign Rating Reports*. London: Fitch Solutions, 2023.
10. Moliya vazirligi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. *O'zbekistonda investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari*. -Toshkent, 2022.